

O'ZBEK SHE'RIYATIDA ILOHIY ISTILOHLAR VA KOSMOGONIK TIMSOLLARMUSHTARA KLIGI

Jabborova Malohat

BuxDU Filologiya fakulteti O'zbek
Adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistri

Annotatsiya. Maqolada Qur'on va o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyati mushtarakligi, Nanoiy, Mashrab she'riyatining tasavvufiy talqini, she'riyatimizda kosmogenik jismlar: oy, quyosh, yulduzlarning ramziy-qiyosiy talqini, ularning shaxs obrazida qo'llanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, Mashrab, vatan, xalq, osmon, quyosh, yulduz, oy, eshik, tong, yetti, shajaraviy, nur.

Diniy, jumladan qur'onlyi mavzularni jahon, xususan, o'zbek adabiyotiga singib ketishini o'rganish faqat diniy nuqtayi nazaridangina ibratli bo'lib qolmay, balki Sharq, shuningdek o'zbek adabiyotining ham mavhum qirralarini oydinlashtirib, hozirgi o'zbek adabiyotining shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga madad beradi. Qur'oni karimda 17-suraning 86-oyatida shunday deyiladi:" Qasamki, agar xohlasak, sizga vahiy qilgan narsa-Qur'onne sizdan ketkazurmiz, so'ngra o'zingiz uchun (ya'ni bizdan Qur'onne qaytarib olish uchun) boshqa bir vakil- homiy topa olmassiz".

Darhaqiqat, Parvardigor homiyligi tufayli Qur'on bizga qaytdi va o'zbek adabiyoti o'zining asl o'zani- islom oqimiga qo'shildi. Sohirnafas qalb egasi Boborahim Mashrabda shunday miralar uchraydi:

Olovga soldi asbob etgali boz,
Azaldan zar edim, zargar topildi.
Dedi Mashrab chu kuyganlarga kuymas,
Muhabbat qonidin javhar topildi.²⁵

Haqiqatan ham, zarrin so'zlarimizga zargar yagonadir va azaldan shunday bo'lib kelgani haq. Temuriylar shajarining yuksak vakili Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ham qur'onlyi talqinlar bejirim bezaklar singari singdirilgan. U qur'onne umri davomida e'zozlab, barcha ishlarini oyatlar bashorati yordamida bajargan. Chunonchi, o'zidan bir necha barobar qudratliroq qo'shin llyosxo'ja boshchiligidagi mog'ul qo'shinlariga qarshi kurashda Qur'oning 2-surasi, ya'ni Badr surasining 249-oyatiga tayanadi :"Qanchadan qancha kichkina guruhlar Allohning izni bilan kata guruhlar ustidan g'alaba qilgan". Ushbu bashoratni topganimdan keyin lashkarimni tartibga keltirib, uni yetti fajvgaga bo'lib yo'lga tushdim". Mazkur oyatning nozil etilishi Badr qudug'i yonidagi jang bilan bog'liq bo'lib, Muhammad alayhi-s-

²⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-taborak porasi. Toshkent, 1992.

salom kam sonli lashkari bilan ko'p sonli mushrik qurayshlarini tor-mor qilgani haqidadir. Bu oyat islom dinining shukuhli sahifalaridan biri deb e'zozlanadi.

Turkiy adabiyotning mehr-u mohi bo'lgan hazrat Navoiy ijodiyotida ham osmon jismlarining ilohiy tajallisi ufurib turadi.

Lek quyosh javhari chun keldi pok
Bo'lsa bulut nurig'a mone ne bok...
Kavnni yoritdi rasuli arab,
Netgay o'zin tiyra qilib bu-Lahab-²⁶

Bunda quyosh ramziy mohiyat kasb etib Muhammad payg'ambarimizni anglatadi, bulut esa Abu Lahab kabi unga isyon qilgan kofirlar timsolidir. Kavn so'zining ma'nosi "olam, borliq" demakdir. She'rning mazmuniga keladigan bo'lsak,, ya'ni aslida javhari pok bo'lgan quyosh nuriga bulut monelik qila olarmidi? Payg'ambarimiz Muhammad alayhisalomga necha Abu Lahablar qarshilik qilgani bilan biror natija chiqara oldilarmi?-degan ma'no tushuniladi. Qur'oni Karimning "Jum'a" surasida Tangri taolo shunday marhamat qiladi: "U(Alloh) omiylar(ya'ni, ahli kitob bo'lgan ilmsiz kishilar) orasiga o'zlaridan bo'lgan, ularga (Qur'on) oyatlaridan tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga kitob-Qur'on hamda hikmat-hadisni o'rgatadigan bir Payg'ambari (ya'ni, Muhammad alayhissalomni) yuborgan zotdir. Shak-shubhasiz ular (o'zlariga payg'ambar kelishidan) ilgari ochiq zalolatda edilar.²⁷

"Hayrat ul-abror"ning oltinchi maqoloti bevosita axloqiy muammo talqiniga bag'ishlanadi va shoир unda odob egalari haqidagi mulohazalarini keltirib o'tadi. Xususan, Navoiy odobning asosini tavoze'da ko'radi va shunday deydi:

Chunki tavoze'g'a xam o'ldi hilol,
Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Adib bunda tavoze'lik kishini yoy shaklida egilib chiqqan hilol (yangi oy)ga o'xshatadi. Odob ortida topilgan kamol va ehtiromni hilolni kunba kun to'lishib, chiroy ochib borishiga mengzab, go'zal tashbeh yaratadi. Navoiy odobning zidi sifatida kulguni ko'rsatadi:

Kulgiki o'z haddidin o'ldi yiroq,
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq...

Qildi bulut ashki bilan dur nisor,
Bo'ldi chaqin kulgisidin xoksor-

Ya'ni haddan ortiq kulgi qalbni o'ldiradi. Bundan yig'l, ko'z Yoshi yaxshiroqdir. Axir bulut ko'z yoshlari bilan gul undirishini, chaqin esa befoyda ovozidan uyalib, o'chib qolishini ko'rмаганмисан?!

Navoiy bu misralarda oy, bulut kabi osmon jismlari orqali inson qiyofasidagi komillik va zalolat chegaralarini yoritib beradi.

O'rinsiz kulgining kufr ekanligi haqidagi talqinlar muqaddas kitoblarda bir qancha rivoyatlar asosida yorib beriladi.

²⁶ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" Toshkent:G.G'ulom,1997.

²⁷ Qur'oni Karim (O'zbekcha izohli tarjima), Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992.

Ibn Umar (r.a)dan rivoyat qilinadi: Payg'ambarimiz(s.a.v.) bir kuni masjidga chiqdilar. Qavm gaplashib, kulishib turardi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ularning oldiga to'xtab salom berdilar va ularga: "Lazzatni kesuvchi narsani ko'p zikr qilinglar" dedilar. Bizlar:"Yo Rasullaloh, lazzatni kesuvchi narsa nima?" deb so'radik. "O'lim", dedilar.

Shundan keyin yana bir kun chiqdilar. Qavm kulishib turgan edi. Ularga salom berib: "Ogoh bo'linglar! Nafsim qo'lida bo'lgan zotga qasamki, agar men bilgan narsalarni sizlar bilganingizda edi, albatta, kamroq kulib, ko'proq yiog'lar edingizlar", - dedilar.²⁸

Mumtoz matnlar, she'rlar bilan ishlar ekanmiz, uning bevosita din bilan, tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq ekanligiga guvoh bo'lamic. Chunki dindan, iyondan yiroq adabiyot ruhsiz adabiyotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Boltaboyev H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. O'zb.Res. FA "Fan" nashriyoti, 1993-yil.
- 2.Hasanov Sh. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonlarining poetikasi. Filol. Fanlari d-ri...- Toshkent.:2004.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-taborak porasi. Toshkent, 1992.
4. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" Toshkent:G.G'ulom,1997.
5. Qur'oni Karim (O'zbekcha izohli tarjima),-Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992.
6. Imom al-Buxopriy. Al-adab al-Mufrad. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990.

²⁸ Imom al-Buxopriy. Al-adab al-Mufrad. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990.